

## TALABALARGA NAQSH CHIZISHNI O`RGATISH

*Nizamov Shakir Shukurovich, Badalova Sevara Imomqulovna  
A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta`lim kafedrasи o`qituvchilari,  
Jizzax, O`zbekiston  
e-mail: nizomov\_sh@jspi.uz*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Texnolgik ta`lim fanlarini o`qitishni amaliy o`rgatish, jumladan Xalq hunarmandchiligi fanidan naqqoshlik san`ati, naqsh namunalarini qalamda chizish namunalari ko`rsatilgan.

**Kalit so`zlar.** Naqsh, o`simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa naqshlar, Guli bodom, parallel chiziq.

\*\*\*

**Аннотация.** В данной статье представлены практические занятия по преподаванию технологических наук, в том числе живописи в сфере народных промыслов, примеры рисования узоров карандашом.

**Ключевые слова.** Узор, цветочные, геометрические, цветочные гирих, символические и другие узоры, миндаль Гули, параллельная линия.

\*\*\*

**Annotation.** This article provides practical training in the teaching of technological sciences, including the art of painting in the field of folk crafts, examples of drawing patterns in pencil.

**Keywords.** Pattern, floral, geometric, floral girih, symbolic and other patterns, Guli almond, parallel line.

Xalq hunarmandchiligining turli sohalarini o`rganishda talabalar quyidagi bilimlarga ega bo`ladilar: ma`lum kasb-hunar sohalarining tarixi, kelib chiqishi, etnik ildizlari, xalq ustalari va ularning ijodiy faoliyatları; hunarmandchilikning shakl va jahon madaniyatida tutgan o`rni, sohalarining tarqalishi, jug`rofiyasi, turlari, ularning yo`nalishlari; Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Termiz, Nukus, Andijon, Farg`ona, Namangan, Rishton, Urgut hunarmandchilik maktablari ustalari va ularning o`ziga xos yo`llari; tarixiy me`morchilik obidalari, ularning qurilishi,

saqlash va ta'mirlash; mahalliy mehnat va xom ashyolarining zahiralarining manbalari, turlari, tarqalishi, ularning hunarmandchilik markazlarining shakllanishiga va rivojlanishiga ta'siri, hunarmandlar sulolalari, risolalari, xalq amaliy va tasviriy san'ati hamda hunarmandchilikning o'zaro bog'liqligi va aloqasi va boshqalar.

Xalq hunarmandchiligi asoslarini egallashda talabalar quyidagi amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'llishlari: turli xildagi materiallarni tanlash va ularga ishlov berish; hunarmandchilik asboblari, moslamalari bilan ishslash; ma'lum sohalarda foydalaniladigan elektr va mexanizasiyalashtirilgan qurilmalar, moslamalar va uskunalar bilan ishslash; turli buyumlar va mahsulotlarni badiiy estetik bezash uchun naqshlardan foydalana olish bo'yicha bilimlar berish, ko'nkma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Naqsh — arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, inkurustasiya, panjaralar va hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o'yib, chizib, choc yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san'ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiyyidir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi. Chunonchi, Xitoyda, Qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga: geografik o'rniga, o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil hayvonlar, qirg'iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Yevropada barokko, gotika, roman, klassisizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi.

*Naqsh elementlarini chizish.*

Xalq hunarmandchiligidagi naqsh chizish muhim ahamiyatga ega. Naqsh chizishni yaxshi bilmasdan turib hunarmandchilik buyumlarini har qancha chiroyli qilib tayyorlamaylik bari-bir sizni yetuk usta naqqosh deb hech kim tan olmaydi. Naqshlarni qanday qoidalarga asoslanib qaysi tartibda o'rganish kerak degan savol tug'iladi.

Naqshlar qaysi bino yoki buyumni bezamasin, o'ziga xos uslub va texnologiya talab qiladi. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz naqsh turlarini puxta o'rganganliklari uchun hayotdagi shodlikni ham, g'am-kulfatni ham jonli chiziqlar, rang-barang naqshlar orqali bera olganlar. Albatta naqshlardagi mazmun va ma'noni o'qiy olish uchun kishida badiiy ma'lumot, o'ziga xos bir san'at bo'lishi kerak. Har qanday materialga naqsh ishslash mumkin. Albatta bularni ishslashdan oldin naqsh chizish geometriyasini bilish zarur.

Xalq hunarmandchiligidagi ishlatiladigan naqshlar mazmuniga ko'ra — o'simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi.

#### *Naqsh namunalarini qalamda chizish.*

Har bir naqsh ma'lum qonuniyatlar asosida tuziladi va chiziladi. Naqshlarning o'ziga xos nomlari va ma'nosi bo'ladi. Har bir naqsh va uning elementini azaldan ota-bobolarimiz biror narsa va voqelikning ramzi tariqasida tasvirlab kelganlar, masalan, zirk gulini osoyishtalik va umr uzoqlik, jingalak naqshlar esa to'kin-sochinlik, boylik, Anqo —(Qush) kishiga baxt keltiruvchi va hokazo.

Har qanday naqsh oddiy yoki murakkab bo'lishidan qat'i nazar oddiy elementlarni ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirish natijasida hosil bo'ladi.

Masalan, Guli bodom naqshini olaylik. U bodomning ma'lum masofada ritmik takrorlanishidan hosil bo'ladi. Ya'ni naqshning asosini bodom tashkil qiladi. Shuning uchun ustalar bu naqshni Guli bodom deb ataydilar.

Endi biz naqsh namunalarini qora qalamda chizishning qonun-qoidalar va bosqichlari bilan tanishib chiqamiz. Keling yuqorida aytib o'tilgan ikkitata gulni qalamda chizishni mashq qilamiz.

Bu mashqlarni bajarish uchun katak daftari yoki albom, o'rta yumshoqlikdagi qora qalam, chizg'ich kerak bo'ladi. Rasm daftarga

naqshlarni to'g'ri kompanovka qilish, qalamni yengil, bosmasdan chizish kerak.

Guli bodomni qalamda rasm daftarda quyidagi bosqichda chizib boramiz. Chizishda ritm va simmetriyaga rioya qilishni unutmang.

1-bosqich. Ikki parallel chiziq chizib ularning oralig'ini teng bo'laklarga bo'linadi. Kvadratlarga diagonal chiziqlar o'tkaziladi. Bularning hammasi ingichka chiziqlar asosida bajariladi.





2-bosqich. Ikki kvadrat oralig'iga yarim aylana chizib chiqiladi.






3-bosqich. Yuqorida chizilgan yarim aylanalarini teskari holatida rasmda ko'rsatilganidek qilib chiziladi.

4-bosqich. Ikkala bodomning pastida va yuqorisidan kurtaklar chiqariladi (1-rasm).

Xuddi shu singari bosqichlar asosida qolgan naqsh gullarini rasmga qarab chizib olinadi. Har bir naqshni puxta o'rganib olish uchun uni 5—7 marta takror-takror chizib mashq qiling. Naqsh gullar chizishni shunday o'rganingki, ularni yoddan chiza oladigan bo'ling. Bu mashqlarni bajarishda chiziqlarni ravon, nafis va chiroyli chiqishiga e'tibor bering.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'tiladigan mashg'ulotlarning maqsadi o'quvchilarga turli buyumlar va mahsulotlarni badiiy estetik bezash uchun naqshlardan foydalana olish bo'yicha bilimlar berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Bunda talabalar xalq hunarmandchiligining va ishlab chiqarishning turli sohalarida qo'llaniladigan amaliy bezak ishlari bilan tanishadilar, ushbu amaliy bezak usullarining ayrim kasblarga xos texnologiyalarni o'rganadilar. Buni buyum yoki maxsulotning shaklini xosil qilishda badiiy stillashtirish usulidan foydalanish va shu bilan birga bezak elementlarini mazmun va o'lcham jixatidan shu buyum yoki mahsulot uchun mutanosibligini ta'minlash qoidalari o'rgatib boriladi.





## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M.A.Maksumova, Q.M.Abdullayeva. Xalq hunarmandchiligi.-T DPU 2008 y.
2. S.Bulatov. O’zbek xalq amaliy bezak san’ati. Toshkent “Mehnat” 1991 yil
3. AAzimov I. “O’zbekiston naqshu-nigorolari”. Toshkent. “G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”. 1987 yil.
4. Q.M.Abdullayeva, M.A.Maksumova, M.Raximjanova. Gazlamaga badiiy ishlov berish.-T. “Cho`lpon” 2011 y.

